



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 30-noyabr, payshanba,
142 (23.861)-son

**KUN
HIKMATI**

Mixning quvvati
nimanidir ushlab
turganida emas,
ushlab turishga
yarasha joyga
qoqilganidadir

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz

facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nega huquqbuzarlik oshib boryapti?

Viloyat hokimligi yig'ilishida ushbu masala ko'rildi

Viloyat hokimi E.Turdimov boshqargan yig'ilishda joriy yilning 22-23-sentabr kunlari Oliy Majlis Senatining yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning viloyatimizda ijro etilishi holatining o'rganilish natijalari muhokama qilindi.

Ta'kidlanishicha, o'rganish davomida aksariyat joylarda nazoratsiz qolgan hamda huquqbuzarlik yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan voyaga yetmagan shaxslar bilan yakka tartibda ishlash, shuningdek, ularning ota-onasi yoki o'rnini bosuvchi shaxslarga voyaga yetmaganlarni tarbiyalashda amaliy yordam ko'rsatish maqsadida jamoat tarbiyachilarini tayinlash ishlari yo'lga qo'yilmaganligi, ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari tomonidan dars mashg'ulotlariga sababsiz kelmayotgan yoxud muntazam ravishda qatnashmayotgan o'quvchilar monitoringi qilinmaganligi aniqlangan.

Buning oqibatida joriy yilning 8 oyi davomida 3128 ta huquqbuzarlik qayd etilgan. 2022-yil 8 oyida sodir etilgan jinoyatlarda jami 113 nafar voyaga yetmagan ishtirok etgan bo'lsa, 2023-yilning mos davrida bu ko'rsatkich 139 nafarga yetib, 23 foizga ortgan.

Joylarda olib borilayotgan profilaktik tadbirlarga qaramasdan, shu yilning o'tgan 10 oyi davomida viloyat bo'yicha 6372 ta jinoyat (ularning 33 foizi (2107) yoshlar, 2,5 foizi (161) voyaga yetmaganlar tomonidan) sodir etilgan, - deydi viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i Rahmat Mamatov. - Jinoyatlar orasida qotillik va og'ir tan jarohati yetkazish turlari ham bo'lib, ularni yoshlar va voyaga yetmaganlar sodir etganligi barchamizni sergak torttirishi kerak.

Yig'ilishda keyingi yillarda "mahalla beshligi" tizimi yaratilgani, lekin aksariyat mahallalardagi beshliklar yaratib berilayotgan sharoit va imkoniyatlardan to'g'ri foydalanmay, vazifalar ijrosiga panja orasidan qarab kelayotgani aytiladi. - 6 ta tumanda o'tkazilgan o'rgan-

ishlarimiz davomida jinoyat sodir etish ehtimoli bo'lgan shaxslarga nisbatan berilgan xulosalar bo'yicha mahalla beshligi tomonidan maqsadli profilaktik ishlar olib borish o'rniga xulosalar bo'yicha ijtimoiy moslashtirish dasturlari tuzmasdan, muammolarini hal etmasdan, soxtakorlik holatlariga yo'l qo'yib kelinayotganligi aniqlandi, - dedi R.Mamatov. - Jumladan, Samarqand tumani Jo'yi Abbos mahallasida 6 ta jinoyat sodir etilib, ushbu mahalla "qizil" toifaga kiritilgan. Mahalladagi hokim yordamchisi F.Ibragimovga fuqaro T.Nazarovning ishsizligi bo'yicha 2023-yil 15-iyul kuni xulosa berilgan, biroq hokim yordamchisi ushbu shaxsning bandligini ta'minlash choralari ko'rmasdan, Urgut tuman "Muruvvat" uyining 13 yil oldingi, ya'ni 2010-yil 22-dekabr kuni 36-K-sonli buyrug'i nusxasini ilova qilgan holda fuqaroning muammosi hal etilgan, deb ma'lumot bergan.

Qo'shrabot tumani Xonnazar mahallasi xotin-qizlar faoli S.Eshbekovaga 10 ta xulosa berilgan bo'lsa-da, xulosalar bo'yicha ijtimoiy moslashtirish dasturlari tuzilmagan, har oylik ma'lumotlar qilinmagan, alohida yig'ma jild yuritilmagan. Profilaktika inspektori Hasan Ashirov ham ushbu kamchiliklarga loqaydlik bilan qaragan.

Yig'ilish yakunida viloyat hokimi voyaga yetmaganlar bilan ishlashda soxtakorlikka yo'l qo'yishning o'zi jinoyat ekani, bu borada qat'iyat, sifat va e'tibor bilan ish olib borish shartligi, mahalla mas'ullari va profilaktika inspektorlari har bir holatga ham mas'uliyat bilan yondashgan holda yechim izlashi zarurligini ta'kidladi. Bu borada mutasaddilarga aniq topshiriqlar berildi.

O'z muxbirimiz.



ERKIN QOZOQOV JAHON CHEMPIONI

Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrida kurash bo'yicha jahon chempionati bo'lib o'tdi. 15 nafar kurashchi bilan ishtirok etgan O'zbekiston terma jamoasi jahon chempionatini 7 ta oltin, 1 ta kumush, 1 ta bronza medali bilan yakunladi.

Chempionatda -90 kilogramm vazn toifasida yurtimiz sharafini himoya qilgan pastdarg'omlik kurashchi Erkin Qozoqov finalda turkmanistonlik raqibi Sanjar Abdurahimovni halol bahosi bilan taslim etdi va oltin medalni qo'lga kiritdi.

URGUTLIK TADBIRKORLAR BILAN UCHRASHUV

Viloyat hokimining tadbirkorlar bilan navbatdagi uchrashuvi Urgut tumanida o'tkazildi.

Uchrashuvga tuman tadbirkorlaridan 37 ta ariza tushgan bo'lib, qabul-gacha 18 ta muammo mas'ullar tomonidan hal etildi, 19 nafar tadbirkor faoliyatidagi to'siq bo'layotgan masalalar yuzasidan viloyat hokimiga murojaat qildi.



Murojaatlarning aksariyati Prezidentimizning joriy yil 12-iyundagi "Kambag'alikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni asosida imtiyozli kredit ajratish, davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun subsidiya ajratish masalalarida bo'ldi. Shuningdek, qo'shimcha pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun qurilish korxonasidan pul undirish, korxonaga zamonaviy uskuna olishda imtiyozli kredit ajratish, yangi qurilgan binoni foydalanishga qabul qilishdagi to'siqlar bo'yicha murojaatlar eshitildi. Jumladan, Urgut tumani Oqmachit ma-

hallasidagi "Ergash Tursun servis" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Husniddin Jo'rayev "Kattaqo'rg'on yo'l ta'mirlash" davlat unitar korxonasi bilan tuzilgan shartnoma asosida rejadagi ishlarni bajargan, ammo korxonaga berilishi kerak bo'lgan 152 million so'm pul hamon berilmagan.

Tadbirkorga bu masalada sudga murojaat qilishi tushuntirildi. Shuningdek, "Mintaqaviy yo'llardan foydalanish buyurtmachi xizmati" davlat unitar korxonasi boshlig'iga mazkur murojaatni o'rganib, hisobot kiritish topshirig'i berildi.

Fazliddin RAHMATOV,
Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi.

"Zarafshon" va "Самаркандский вестник" – GAZETALARIGA 2024-YIL UCHUN OBUNA BO'LING!

BIZ:
· Samarqand hayotiga oid muhim xabar va yangiliklarni gazetalarimiz va internetdagi sahifalarimiz orqali birinchi bo'lib yoritamiz;
· ma'lumotlarni birinchi manbadan olib, sizga yetkazamiz;
· eng muhim, foydali ma'lumotlarni sizga ilinamiz.

OBUNANI TAHRIRIYATNING O'ZIDAN HAM RASMIYLASHTIRISHINGIZ MUMKIN!

Obuna bahosi O'TGAN YILGI NARXDA!

**"ZARAFSHON" gazetasi
(haftada uch marta) obunasi:**

· 640 ming so'm (yakka tartibda tahririyatdan olib ketish, Samarqand shahridagi boshqarmalar, muassasalar, yirik korxona va tashkilotlarga yetkazib berish sharti bilan);
· 768 ming so'm (matbuot tarqatuvchilar orqali yetkazib berish sharti bilan).

**"САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК" gazetasi
(haftada ikki marta) obunasi:**

· 468 ming so'm (yakka tartibda tahririyatdan olib ketish, Samarqand shahridagi boshqarmalar, muassasalar, yirik korxona va tashkilotlarga yetkazib berish sharti bilan);
· 561 ming 600 so'm (matbuot tarqatuvchilar orqali yetkazib berish sharti bilan).



DEKABR

1

1-DEKABRDAN NIMALAR O'ZGARADI?

DEKABR

1

Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish hamda transportni ro'yxatga olish bo'yicha davlat xizmatlari xizmat ko'rsatuvchi xodim tomonidan murojaat etuvchining yashash joyiga borib, planshet yoki kompyuterga o'rnatilgan texnik qurilmalar yordamida qo'shimcha to'lov asosida ko'rsatiladi.

Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxati quyidagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi:
- hududlar kesimida "Haj" tadbiriga borish uchun navbatda turgan ziyoratchilarning yagona onlayn navbati to'g'risidagi (ziyoratga boruvchi shaxsning arizasi navbatga qo'yilgan sana va ro'yxatdagi tartib raqami) ma'lumotlar;
- bolalarni davlat bog'chalariga qabul qilish uchun berilgan arizalar navbati (ro'yxati) to'g'risidagi (ariza navbatga qo'yilgan sana, ro'yxatdagi tartib raqami, yosh guruhi hamda tashkilot raqami) ma'lumotlar;
- davlat organlari va tashkilotlarida davlat xarid-

larini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi xarid komissiyasining ichki idoraviy tartibi (nizom, reglament, yo'riqnoma yoki boshqa ichki idoraviy hujjat);
- markaziy, hududiy va tizim tashkilotlarida bo'sh ish o'rinlari, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- davlat organlari va tashkilotlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarga taqdim etilgan grant va ijtimoiy buyurtma loyihalariga haqidagi ma'lumotlar, shu jumladan, g'olib bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning buyurtma doirasida bajargan ishlari yuzasidan hisobotlari haqidagi ma'lumotlar.

Transport vositasining egasi-ga transport vositasini boshqarish huquqi o'tkazilgan shaxs bilan birgalikda tegishli huquqni belgilovchi hujjatni (ishonchnoma va boshqalar) taqdim etgan holda, davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati organlarini transport vositasini boshqarish huquqini o'tkazganligi haqida xabarard qilish huquqi beriladi.

Bunda, xabarnoma olingan kundan vakolatli organ tomonidan Yo'l harakati xavfsizligi xizmatining yagona avtomatlashtirilgan axborot-tahlil tizimiga tegishli o'zgartirishlar kiritish hamda ushbu transport vositasida sodir etilgan yo'l harakati qoidalarini buzilganligi uchun boshqarish huquqi o'tkazilgan shaxs-ga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirish tartibi joriy etiladi.

Respublikada kuchli zilzilalar haqida erta ogohlantirish milliy tizimi bosqichma-bosqich ishga tushiriladi hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi bunga mas'ul etib belgilanadi.

Quyidagi joylarda elektromobillarni tez quvvatlantirish stansiyalari barpo etiladi:

- Nukus shahri, viloyatlar markazlari va viloyat bo'ysunuvda bo'lgan shaharlar hududlaridagi avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari, sig'imi 100 avtomobilidan ortiq bo'lgan avtoturargohlar hamda bozorlar hududida;
- "O'zbekiston turizm magistrali" turizm transport koridorini avtomagistral yo'llarida joylashgan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari, savdo va ko'ngilochar markazlari hududida.

Prezidentning "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi farmoniga ko'ra:
- b u d j e t tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdori 7 foizga;
- bazaviy hisoblash miqdori 3 foizga oshiriladi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti tashabbusi bilan "Pediatriya va farmatsiya: bolalar va o'smirlar salomatligi uchun" nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi.

Anjumanda Rossiya, Turkiya, Malayziya va Qozog'iston kabi yigirmanchi davlatdan fundamental va klinik tibbiyot sohasidagi yetakchi olim va ilmiy izlanuvchilar, pediatri hamda farmatsevt mutaxassislar ishtirok etdi. Ular pediatriya va

Tibbiyotchilar tajriba almashdi

farmatsiya sohasidagi muammolar, bolalar va o'smirlar o'rtasida uchraydigan kasalliklarni erta tashxislash, davolash va profilaktika qilishda respublikamiz va xorijda o'tkazilgan zamonaviy tibbiy tajribalarni muhokama qildi.

Anjumanda Respublika Sog'liqni

saqlash vaziri o'rinbosari A.Ali-mov, Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi, Rossiya perinatal tibbiyot mutaxassislari assotsiatsiya prezidenti N.Volodin, Turkiya meditsina fanlari universitetining Yevroosiyo tibbiy va ijtimoiy fanlar markazi direktori A.Fayziyug'lu

Xalqaro anjuman

yurtimizda pediatriya va farmatsiya sohalarining rivojlanishi, onalar va bolalar o'rtasida uchraydigan turli kasalliklarni erta aniqlash borasidagi ishlarga yuksak baho berdi.

Anjuman davomida olimlar o'zaro fikr almashib, tibbiyotning turli yo'nalishlarida hamkorlik qilishga kelishib oldilar.

Saydullo RASULOV, tibbiyot fanlari doktori, Xalqaro fan va san'at akademiyasi muxbir a'zosi.



KREDITDAGI AVTOMOBILNI SOTIB OLISH MUMKINMI?

- Taqiqdagi avtomashinani boshqa shaxsga hadya qilib, keyin rasmiylashtirib olsak bo'ladimi?

- Agar hadya qilmoqchi bo'lgan avtotransport vositanigiz garov (ipoteka shartnomasi) asosida taqiqqa qo'yilgan bo'lsa, "Garov to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasiga asosan, garovga oluvchining roziligi bilan uni boshqa shaxsga berish, ya'ni hadya qilish, oldi-sotdi qilish, ijara-ga yoki bepul foydalanuvga berishning mumkin.

Shuningdek, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga qo'yuvchi quyidagilarga haqli:

- garov bilan ta'minlangan majburiyatni ushbu qonunda belgilangan tartibda muddatidan oldin bajarish;
- garovga oluvchining roziligi bilan garov narsasini almashtirish;
- garov bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha qarzni garovga oluvchining roziligi bilan boshqa shaxsga o'tkazish.

- Avtokreditga olingan avtomobilni sotib olmoqchiman. Kredit so'ndirilmasa, avtomobil mening nomiga o'tmaydi. Shu holatda ham avtomobil egasi bilan kelishuvimizni notarius orqali hujjatlashtirsak bo'ladimi?

- Avtoullovni taqiq saqlangan holda bankning rozilik xati va o'zaro uch tomonlama shartnomaga asosan oldi-sotdi qilish mumkin. Garov shartnomasi texpasport almashtirilganidan keyin rasmiylashtiriladi.

- Otam menga uyni hadya qilishi uchun qanaqa hujjatlar kerak bo'ladi?

- Hadya shartnomasini rasmiylashtirish uchun uyga egalik huquqini tasdiqlovchi hujjat, agar mulk onangiz va otangizning nikohi vaqtida o'ttirilgan bo'lsa, onangizning roziligi kerak bo'ladi. Shuningdek, zarur hollarda boshqa hujjatlar talab qilinishi mumkin. Masalan, ko'chmas mulk bank krediti hisobiga sotib olingan bo'lsa, kredit shartnomasi zarur.

Bitimni tuzish uchun hadya qiluvchi hamda hadyani oluvchi ham notarial idoraga pasporti bilan kelishi lozim. Bitim vakil tomonidan tuzilayotgan taqdirida, undan va-kolatini tasdiqlovchi hujjat talab qilinadi.

Savollarga Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Farrux XOJAYEV javob berdi.

Kattaqo'rg'onda elektr muammosi hal bo'lgan(mi?)

- Yuridik tashkilotlarning qarzi ham kam emas, - deydi korxona energiya sotish bo'limi boshlig'i Rustam Avazov. - Ularning ham bir necha yillardan buyon yig'ilib qolgan qarzlari 45 milliard so'mni tashkil etadi. Bunga asosiy sabab o'nlab fermer va dehqon xo'jaliklari, korxona-tashkilotlarning yopilib ketishi bo'ldi. Qarzlarni undirib olish maqsadida 50 ga yaqin yuridik shaxslarni aniqlab, sudga hujjat kiritganimiz. Shuningdek, joriy yilda ham 390 ta iste'molchini noqonuniy ulash holatlari aniqlanib, 2411,5 million so'mlik jarimalar undirish bo'yicha dalolatnomalar rasmiylashtirilgan.

Press-turda joriy yilning o'tgan davrida tuman-da elektr ta'minotini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ham ma'lumotlar berildi.

Tuman bo'yicha 1906 kilometr masofadagi 0,4/6/10 kW havo elektr uzatish tarmog'ining 212,7 kilometr mukammal, 416,7 kilometri joriy, shuningdek, 243 dona transformator punkti joriy va mukammal ta'mirlandi.

Mavsum arafasida Qirg'iz mahallasida 2 ta transformator, 100 ta temir beton-tayanch ustunlari o'rnatilib, 2,67 kilometr SIP-2, 1460 metr SIP-4 yopiq kabellari tortildi. Shuningdek, Mundiyo, Mulkor'pa, Qumoq, Nayman va Yangiqiyot mahallalarida 5 ta transformator punkti va 282 ta beton ustun o'rnatilib, 16 kilometr SIP-2 va 1,73 kilometr AS-50 markali havo elektr uzatish tarmog'i yangidan tortildi.

Vazirlar Mahkamasining 435-sonli qarori bo'yicha Sebston, Zarqo'rg'on mahallalarida 4 dona 100 kW transformator punkti, 198 ta beton ustunlar o'rnatildi. 6,5 kilometr AS-50 tarmog'i tortildi.

Press-tur ishtirokchilari Chuyanchi mahallasida korxona ishchilari tomonidan beton ustunlar o'rnatish va yopiq kabellar tortish jarayoni bilan tanishdi. Mazkur qishloqda 100 kWlik yangi transformator va 56 ta beton ustunlar o'rnatildi. Yana 30 ta ustun yil yakunigacha o'rnatiladi.

Kuz-qish mavsumida avariya holatlarini bartaraf etish uchun 3 ta tezkor brigada va tungi navbatchilik tashkil etilgan.

D.TO'XTAYEV.

184 nafar fuqaro ovqatdan zaharlangan va 4 nafari vafot etgan

Bu haqda Urgut tumanida viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi tashabbusi bilan "Ovqatdan ommaviy zaharlanish va favqulodda vaziyatlarda tibbiy epidemiologik tadbirlarni tashkil etish" mavzusida o'tkazilgan seminar-da ma'lum qilindi.

Tadbirda viloyat favqulodda vaziyatlar, ichki ishlar, sog'liqni saqlash, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmalari mutaxassislari tomonidan botulizm kasalligi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar va ularning oldini olish, yaroqsiz oziq-ovqat mahsulotlarini saqlamaslik, ovqatdan zaharlanish holatlarida epidemiologik tekshiruv o'tkazish tartibi to'g'risida ma'lumot berildi.

Viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi boshlig'i Mahzuna Nasriddinovaning ta'kidlashicha, viloyatda ovqatdan zaharlanish holatlari bo'yicha epidemiologik vaziyat yildan-yilga og'irlashib bormoqda. Jumladan, 2021-yilda viloyatda qayd etilgan 15 ta ovqatdan zaharlanish holatida 145 nafar, 2022-yilda 11 ta zaharlanish holatida 131 nafar fuqaro jabrlangan bo'lsa, joriy yilning 11 oyida 15 holatda 184 nafar fuqaro ovqatdan zaharlangan va 4 nafari vafot etgan.

So'nggi uch yilda uy sharoitida tayyorlangan qo'lbola konservalardan hamda umumiy ovqatlanish korxonalarida, to'yxonalarida tayyorlangan taomlardan zaharlanish holatlari Samarqand shahar, Qo'shrabot, Bulung'ur, Urgut, Payariq va Past Darg'om tumanlarida ko'p

ARMRESTLING: samarqandlik sportchilar Osiyo chempionatida 50 ta medalni qo'lga kiritdi

17-25-noyabr kunlari Samarqand shahrida yoshlar, o'smirlar va kattalar o'rtasida sportning armrestling turi bo'yicha Osiyo kubogi bahslari bo'lib o'tdi.

Musobaqada 22 davlatdan 1300 nafardan ziyod sportchi ishtirok etdi. Bellashuvlar natijasiga ko'ra, medallar jamg'arish bo'yicha qozog'istonlik sportchilar birinchi, o'zbekistonliklar ikkinchi va qirg'izistonliklar uchinchi o'rinni egalladi. Musobaqada 69 nafar samarqandlik sportchi yurtimiz sharafiga munosib himoya qilib, 9 ta oltin, 12 ta kumush va 29 ta bronza medalini qo'lga kiritdi.



TABI.E.3

17-25-noyabr kunlari Samarqand shahrida yoshlar, o'smirlar va kattalar o'rtasida sportning armrestling turi bo'yicha Osiyo kubogi bahslari bo'lib o'tdi.

Musobaqada 22 davlatdan 1300 nafardan ziyod sportchi ishtirok etdi. Bellashuvlar natijasiga ko'ra, medallar jamg'arish bo'yicha qozog'istonlik sportchilar birinchi, o'zbekistonliklar ikkinchi va qirg'izistonliklar uchinchi o'rinni egalladi.

Musobaqada 69 nafar samarqandlik sportchi yurtimiz sharafiga munosib himoya qilib, 9 ta oltin, 12 ta kumush va 29 ta bronza medalini qo'lga kiritdi.

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tuman davlat xizmatlari markazidan 2022-yil 1-noyabrda 2003640 reestr raqami bilan ro'yxatga olingan "ASR JANNAT BEKATI" mas'uliyati cheklangan jamiyati (qisqartirilgan nomi: "ASR JANNAT BEKATI" MCHJ) ixtiyoriy ravishda tugatilmogda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Jamiyatning pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Payariq tumani, Qumchuq mahallasi, O'yingoh ko'chasi, 74-uy.

Jamiyatning soliq to'laydigan identifikatsion raqami (STIR): 309985785.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromov Jamshid Qo'ldoshevich notarial idorasida marhum Maxamatkulov Faxridin Maxmadaliyevichga (2020-yil 25-martda vafot etgan) tegish-

li mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromov Jamshid Qo'ldoshevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 90-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Kulbayev Astan Bayjigitovichga (2013-yil 9-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Rafikova Neylya Saitovnaga (2013-yil 18-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochil-

moqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Islamov Burxanga (2021-yil 30-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

BEKOR QILINADI

Payariq tumanidagi 55-umumiy o'rta ta'lim maktabining gerbli muhri va tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Komil SULTONOV

Butun umrini qishloq xo'jaligi sohalarining rivojiga bag'ishlagan tajribali mutaxassis, tashkilotchi rahbar Komil Sultonov 61 yoshida vafot etdi.

K.Sultonov 1962-yilda Samarqand shahrida tug'ilib, voyaga yetdi. 1980-yilda maktabni tugatib, Samarqand qishloq xo'jalik institutida o'qidi. Institutni zoomuhandislik mutaxassisligi bo'yicha tugatib, ilk mehnat faoliyatini Navoiy viloyati Navoiy tumani-dagi "Muqum Ibragimov" shirkat xo'jaligida bosh zootexniklikdan boshladi.

Keyinchalik Qashqadaryo viloyati "Sirius" korxonasi "Xishrav" yordam xo'jaligi direktori, "Shahrissa-bz" parrandachilik fabrikasi bo'lim boshlig'i, fabrika qoshidagi dehqon fermer xo'jaligi boshqaruvchisi bo'ldi. 1994-yildan ikki yil davomida "Shahrissa-bz" tashqi savdo tijorat ishlab chiqarish firmasiga rahbarlik qildi.

Viloyat rahbarlari undagi ishtiroq va tashkilotchilikni e'tiborga olib, 1996-yilda Samarqand

viloyat "Go'shtsutsanoat" aksiyadorlik uyushmasi raisi o'rinbosarligiga taklif qilishdi. Bu vazifada ham u o'zini tashkilotchi va ma'suliyatli rahbar sifatida namoyon qildi. Qo'shrabot, Bulung'ur, Nurobod, Kattaqo'rg'on tumanlarida o'nlab chorvachilik fermer xo'jaliklari tashkil etilishida Komil Sultonovning xizmati katta bo'ldi.

2003-yilda viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasida chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i, 2005-yildan boshlab Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi parrandachilik va baliqchilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari bo'lib ishladi.

Tajribali rahbar Komil Sultonov qator yillar viloyat chorvachilikda naslchilik ishlari davlat inspeksiyasi boshlig'i, viloyat qorako'chilik aksiyadorlik birlashmasi, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uyushmasi raisi vazifalarida ishladi. 2010-yildan boshlab esa viloyat omuxta yem, sheluxa va shrot so-



tishga ixtisoslashtirilgan birlashma-ga rahbarlik qildi.

K.Sultonov hayotining so'nggi kunlarida viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari vazifasini bajarib kelayotgandi. U hayoti davomida odamlarning og'irini yengil qilishga intildi, ularga mehr ko'rsatdi.

Komil Sultonov olijanob, mehnatsevar, ochiq ko'ngil inson sifatida yaqinlari xotirasida mangu yashaydi.

VILOYAT VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH BOSHQARMASI JAMOASI.

